
Ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar qo'llab-quvvatlanmoqda

Joriy yil boshida o'tkazilgan xatlov asosida "Zahiriddin Muhammad Bobur" mahalla fuqarolar yig'inida 167 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar "Ayollar daftari"ga olingan.

Nargizaxon Xo'jamova ham voyaga yetmagan, nogironligi bo'lgan farzand tarbiyalayotganligi uchun mazkur daftarga olingan. Farg'ona Davlat universitetining talabasi bo'lganligi uchun jamg'arma hisobidan kontrakt pullari to'lab berilgan.

Nargizaxon bemorligi bois yaqinda ikki marotaba operatsiya qilindi. Dori-darmon va operatsiya harajatlarini qoplash maqsadida fuqaroga xotin-qizlar faolining bildirgisiga asosan 2.5 mln. so'm mablag' ajratildi.

Xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor va ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikdan mamnun bo'lgan Nargizaxon Xo'jamova Davlatimiz rahbari va mas'ullarga o'z minnatdorchiligini bildirdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-11 01:55:59